

XORAZMDA CHORVACHILIK BILAN BOG'LIQ QADRIYATLAR VA AN'ANALAR

Babayeva Zuxra Davronbek qizi
Ma'mun universiteti katta o'qituvchisi
zuxrababayeva2017@gmail.com
Orcid: 0009-0001-2012-1403

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm vohasi aholisining chorvachilik bog'liq qadriyat va an'analarini aks etgan bo'lib, voha aholisi sug'orma dehqonchilik bilan birga chorvachilik sohasini ham yaxshi o'zlashtirgan va boy tajribaga ega xalq ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, dehqonchilik, qadriyat va an'analar.

СВЯЗАННЫЙ С ЖИВОТНОВОДСТВОМ ЦЕННОСТИ И ТРАДИЦИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражены ценности и традиции населения Хорезмского оазиса, связанные с животноводством, и показано, что население оазиса хорошо освоило не только орошающее земледелие, но и животноводство и обладает богатым опытом.

Ключевые слова: Хорезм, сельское хозяйство, ценности и традиции.

RELATED TO LIVESTOCK BREEDING IN KHOREZM VALUES AND TRADITIONS

ABSTRACT

This article reflects the values and traditions of the population of the Khorezm oasis related to animal husbandry, and shows that the population of the oasis, along with irrigated agriculture, has also mastered the field of animal husbandry and is a people with rich experience.

Key words: Khorezm, agriculture, values and traditions.

Xorazm viloyati o'zining tabiiy sharoitining rang-barangligi bilan Respublikaning boshqa viloyatlaridan farq qiladi. Vohada cho'l zonalari bilan yashil vohaning birlashib ketishi har-xil tabiiy sharoit mozaykasini vujudga keltiradi. Bu

tabiatning rang-barangligi Xorazm vohasida dehqonchilik bilan chorvachilikning birdek rivojlanishiga asos bo‘lgan.

Ma’lumki, Xorazm diyori dunyo sivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan biri bo‘lishiga ham viloyatning tabiiy sharoiti o‘zining ta’sirini ko‘rsatgan. Bu yerda iqlim ko‘rsatkichlari unumdon tuproq, suv resurslarining mo‘lligi, sug‘orma dehqonchilik shakllanishiga turtki bo‘lgan omil sanaladi. Shu bilan birga chorvachilikning shakllanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Cho‘l va dasht hududlarda suvsizlikka chidamli turli o‘simliklar ko‘plab uchraydi. Xorazm viloyatida 600 dan ortiq o‘simlik turlari bo‘lib, ulardan 250 dan ortiq turi cho‘l joylarda o‘sadi. Cho‘l zonalarida asosan suvsizlikka chidamli o‘simliklardan: juzg‘un, oqbosh, karvaklar, yontoq va saksau llar o‘sadi. Shu bilan birga viloyatning vo ha qismlari turli o‘simliklarga boy bo‘lib, undan aholi chorva mollari uchun ozuqa sifatida keng foydalangan. Amudaryo bo‘ylarida qalin to‘qaylar bo‘lib, u yerlar ham har xil o‘simliklarga boy bo‘lgan va aholi bu joylarda chorvani poda qilib haydab yurgan[1].

Demak, Xorazm viloyatining tabiiy iqlim sharoiti chorva mollarining turlariga va ularning ko‘payishiga ta’sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Cho‘l zonasida mayda shoxli chorva turlari keng tarqalgan bo‘lsa, vohaning ichkarisida yirik shoxli qoramollar turi yaxshi rivojlangan. Cho‘ldagi chorvachilikda asosiy o‘rinni mayda shoxlilardan qorako‘lchilik egallasa, markaziy sug‘orma dehqonchilik maydonlarida yirik shoxlilarni ko‘p uchratish mumkin. Xorazm vohasidagi bunday chorvachilik turining shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ammo bu davr haqidagi ma’lumotlar juda kam saqlangan. Xususan, arxeolog olim S. P. Tolstov ma’lumotlariga qaraganda, chorvachilikning paydo bo‘lishi neolit davriga borib taqaladi[2.19].

Xorazm vohasida dehqonchilik va chorvachilik faoliyati bilan bog‘liq bir qancha o‘ziga xos an’ana va qadriyatlar shakllangan bo‘lib, bu qadriyatlarning shakllanishiga vo ha tabiati, iqlimi, etnik va ijtimoiy omillar kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Voha aholisi chorva mollarini boqishda o‘ziga xos mehnat folklor namunalarini yaratgan. Ulardan eng asosiylarini sanab, o‘tamiz. Masalan, chorvadan sigir sog‘ishda “xo‘sh-xo‘sh”, “ola sigir” qo’shiqlari aytilib, ulardan ko‘proq sut, ya’ni rizq olish ko‘zda tutilgan. Qo’ylarni va echkilarni sog‘ishda “turey-turey”, “churey-churey” mehnat qo’shiqlari aytilgan[3.56].

Chorva boqishda aholi orasida 2 ta turi keng tarqalgan bo‘lib, bu “Yaylov chorvachiligi” – yaylovdha poda qilib boqish va “uy chorvachiligi” ya’ni dehqonchilik bilan bog‘langan chorvachilik.

Xorazm chorvachiligi ikki turni birlashtirgani bilan ajralib turadi: yaylov va o‘tloq chorvachiligi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning butun tizimi doimiylikni talab qiladi. Chorva mollarini qishloq dehqonchiliga yaqinligi uning dehqonchilik ishlarida asosiy kuch ekanlidigkeit. O‘g‘it va ozuqa tayyorlash, tashish, hosilni saqlash uchun xirmonga yetkazish, ekinlarni yig‘ish, yanchish shuningdek, kuzgi ekin uchun dalani haydash bularning barchasi uzviylikni talab etadi va bu vazifalar ot, buqa, tuya ishtirokida bajarilgan. Ishchi va sog‘in mollarini barqaror sharoitda saqlash va mo‘l o‘g‘it to‘plash xo‘jalikning ishlari tizimliliginini ta‘minlagan omildir. Chunki ularsiz normal hosil olish mumkin emas edi. Bularning barchasi vaqt o‘tishi bilan xo‘jalikda chorva turlarining ma’lum nisbati oshishiga olib keldi.

Chorva mollarini mahalliy aholi bozorga olib chiqib sotishgan va sotib olishgan. Bu haqida quyidagicha ma’lumotlar saqlangan. “Chorva bozori yil bo‘yi bozor kuni erta tongda boshlanadi, keyin jonli savdo bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yuradi. Sotuvchilar ham xaridorlar ham birinchi navbatda qo‘chqor sotiladigan joyga borishadi. qo‘chqor va qo‘y farovonlikni ifodalaydi (shuning uchun avval uni peshaniga qo‘l tekkizib keyin o‘z peshonasiga qo‘l tekkizish bu inoyatni imo-ishora qiluvchi shaxsga o‘tkazishni ifodalaydi). Shundan so‘ng ular omad va baxt toppish uchun ot bozoriga borishdi. “qo‘y bozordan-baxt bozor” degan gap bor edi. Ular bu marosimni tugatib keyin savdoni boshlashadi [4.13].

Shunday fikr qilishimiz mumkinki, chorva mollari aholi orasida faqat mahsulot bazasi sifatida emas, balki kundalik hayotda o‘z o‘rniga ega qadrlanadigan hamda e’zozlanadigan jonivor deb qaraladi. Chunki, ho‘kiz va qo‘chqorlarni urish taqilanganadi. Ularni rizq-baraka sifatida ko‘rishgan va azaldan e’zozlab kelishgan. Bu omillar ham ularni vohada ko‘payishiga bevosita xizmat qilgan.

O‘tgan asr boshlarida qishloq xo‘jaligiga zootexnika vositalarida kirib kelishidan oldin. Yerni haydash, shudgor qilish, yuk qatnash va hatto hosilni yanchishda chorva mollaridan foydalanilgan. Jumladan, yerni haydashdan oldin xalqimiz qo‘sni dalaga olib chiqib, “shoxmoylar” marosimi bajarishgan. Bundan tashqari, voha aholisi hosil yig‘ganda “kavsan” ya’ni hosilni bir-birovga ilinish odatini amalgalashgan.

Cho‘ponlar o‘z hududi tabiiy sharoiti va iqlimini juda yaxshi bilagan va undan mohirona foydalanishgan. Chorvadorlar esa, ko‘p avlod cho‘ponlar tomonidan ishlab chiqilgan ko‘nikmalardan foydalanib, podani boqishgan. ko‘p asrlik amaliyatda ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilgan bu tajribalar mehnat davrlarining ketma-ketligi sezilarli hosil va yuqori mehnat unumdorligini ta‘minlab bergan.

Umuman olganda, Xorazm vohasi aholisi chorvachilik faoliyatining o‘ziga xos turinini yaratgan bo‘lib, unda ma’naviy va milliy qadriyat va an’analrimini o‘zida

jamlagan bo‘lib, bu qadriyatlarning tub mohiyatida mehnatsevarlik, ahillik, birdamlik va milliy g‘oyalari jamlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uzbekistan.travel/uz/o/xorazm-mintaqasidagi-ekologik-yonalishlari-va-xorazm-milliy-tabiiy-bogi/>
2. Абдолниёзов Б., Исъҳоқов М. Авесто ва қадимги чорвачилик. Тошкент, 2008.
3. Abdalov U. Xorazm vohasining qadimiy diniy e’tiqod marosimlari. Toshkent “Yoshlar avlodi” 2021.
4. Голянова Т.Г. Общественные науки в Узбекистане I част. 1964. Издательство Академии Наук Узбекской ССР, Ташкент.